BADIIY TA’LIM MILLIY TAJRIBA VA XALQARO AMALIYOT

Oydin Abdullaeva,
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi
Fan, ta’lim, madaniyat, sport
va yoshlar masalalari qo‘mitasi
rais o‘rinbosari, kompozitor, professor

Badiiy ta’lim — insonning o‘z xalqi va butun insoniyatga mansub badiiy madaniyatni o‘rganish va o‘zlashtirish jarayonidir. U barkamol shaxsni shakllantirish, uning ma’naviyatini yuksaltirish, ijodiy o‘ziga xosligini namoyon etish, aqliy va hissiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Dunyoning yetakchi mamlakatlari qonunchiligida badiiy ta’lim tushunchasi hamda uning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan omillar qonun darajasida mustahkamlab qo‘yilgan.

Xususan, Moldova davlatining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida badiiy ta’lim tushunchasi batafsil yoritilgan. Unga ko‘ra, badiiy ta’lim – milliy ta’lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi hamda ta’limning barcha bosqichlarini qamrab oladi. Qonunga muvofiq, badiiy ta’lim amaliy, nazariy va ijodiy faoliyatni uyg‘unlashtirgan holda turli dasturlar orqali barcha turdagi ta’lim muassasalarida amalga oshiriladi. Shu orqali san’at sohasiga xos ta’lim natijalarini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish ta’minlanadi.

Ukraina davlatining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra, “badiiy ta’lim – faol ijodiy faoliyat jarayonida maxsus ko‘nikmalar, estetik tajriba va qimmatli yo‘nalishlarni egallash, shaxsning kasbiy, xususan, ijro mahoratiga oid bilimlarni o‘zlashtirishni ta’minlaydi, shuningdek, u shaxsning professional badiiy va ijodiy o‘zini anglashi hamda san’atning turli sohalari bo‘yicha malakasini oshirishi talab etiladi” degan ta’rifni ko‘rish mumkin.

Moldova, Ukraina, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Rossiya davlatlarining milliy qonunchiligida badiiy ta'lim tizimidagi ta'lim bosqichlariga alohida e'tibor qaratilgan. Ularda ta'lim bosqichlari huquqiy-me'yoriy jihatdan quyidagicha belgilangan:

- boshlang'ich badiiy ta'lim;
- ixtisoslashtirilgan badiiy ta'lim;
- professional badiiy ta'lim;
- oliy badiiy ta'lim.

Moldovaning milliy qonunchiligida "qo'shimcha badiiy ta'lim" tushunchasi ham belgilangan. Bu ta'lim turi san'atning muayyan yo'nalishini o'rganish qobiliyatiga ega va san'atga qiziqish bildirgan bolalar uchun mo'ljallangan. Uning asosiy vazifasi rasmiy umumta'limni kengaytirish va to'ldirish, shuningdek, bolaning ko'nikma va ijodiy salohiyatni rivojlantirishdan iborat.

Shuningdek, Moldova davlati qonunchiligida badiiy ta'limni tashkil etish masalalari atroflicha yoritiladi. Unga ko'ra, badiiy ta'limning barcha turlari bo'yicha ta'lim standartlari Ta'lim vazirligi hamda **badiiy ta'limga ixtisoslashgan** universitet va universitetgacha bo'lgan bo'g'in professor-o'qituvchilari va o'quv markazlari ishtirokida ishlab chiqiladi. Ta'lim vazirligi badiiy ta'lim sohasidagi ta'lim siyosati va uning **o'ziga xos xususiyatlarini** hisobga olgan holda ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, badiiy ta'limning har bir toifasiga mos ta'lim strategiyalarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

Shu bilan birga, Moldova qonunchiligida badiiy ta'limning ixtiyoriy ekani alohida ta'kidlangan. Unga muvofiq, ta'lim muassasalariga o'quvchi va talabalarni qabul qilish tegishli sohadagi qobiliyatlarni baholash yo'li bilan tanlov asosida amalga oshirilishi huquqiy jihatdan mustahkamlangan.

Jahon davlatlari qonunchiligida badiiy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari mavjud ekani ta'kidlanadi. Shu bois, badiiy ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini yuritish maqsadida **san'atga ixtisoslashgan oliy badiiy ta'lim kengashini** tuzish vazifasi belgilangan. Shu bilan bog'liq ravishda, badiiy ta'limga oid turli fan dasturlarining asosiy jihatlari hukumat tomonidan yangilanib turishi mumkin. Badiiy ta'lim yo'nalishlariga oid ta'lim standartlari va o'quv dasturlari san'atga **ixtisoslashgan Oliy Kengashning** hisoboti asosida Ta'lim

vazirligi tomonidan qayta ko‘rib chiqiladi. Bu jarayonda o‘quv dasturlarining yangilanishi natijasida badiiy ta’lim yo‘nalishlarining **asosiy xususiyatlari** saqlanib qolishi shart ekani alohida ko‘rsatilgan.

Badiiy ta’limning o‘ziga xos xususiyati o‘quv-tarbiyaviy jarayonning kompleks va ijodiy tabiati bilan belgilanadi. Uning asosiy xususiyati tasviriy, musiqiy, adabiy va plastik ifodaviylikka doir qonuniyatlarni amaliy tarzda o‘zlashtirishdan iborat. Bu jarayonda o‘zlashtirish darajasi qonun-qoidani bilish bilan chegaralanmay, balki emotsional tajriba orqali g‘oyani badiiy obrazga aylantirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Shu bois, badiiy ta’lim ko‘pincha yakka tartibdagi mashg‘ulotlar shaklida o‘tkaziladi, bu esa har bir ta’lim oluvchiga individual yondashuv talab etilishini taqozo qiladi. Zotan, insonning olamni hissiy idrok etish va to‘g‘ri tushunish qobiliyatini rivojlantirish, estetik g‘oyalar, tushunchalar, did va e’tiqodni shakllantirish badiiy ta’limning mohiyatini belgilaydi.

Fransiya davlatining milliy qonunchiligida san’atga ixtisoslashgan oliy badiiy ta’lim kengashi tarkibi alohida ko‘rib chiqilgan. Unga ko‘ra, oliy kengash tarkibi davlat va mahalliy hokimiyat organlari vakillari hamda mamlakatning ko‘zga ko‘ringan yetuk ijodkor ekspertlaridan tashkil topadi. Shuningdek, unga Madaniyat vazirligi va Ta’lim vazirligi birgalikda rahbarlik qiladi. Kengash har yili o‘z faoliyati va badiiy-madaniy ta’limning holati to‘g‘risida hisobot tuzadi va uni keng jamoatchilikka e’lon qiladi.

Fransiyaning “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida badiiy ta’limning mazmuniga ham alohida e’tibor qaratiladi. Xususan, badiiy ta’lim jarayonida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar davomida talabalarga badiiy ijod uchun mualliflik huquqi yoki turdosh huquqlar bilan himoyalangan asarlarni noqonuniy ravishda yuklab olish va tarqatish qonunga xilof ekani, bunday harakatlar uchun jinoiy javobgarlik mavjudligi tushuntiriladi. Shuningdek, badiiy ijod jarayonida mualliflik masalalari, unga oid huquq va majburiyatlar haqida bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish vazifalari ham belgilab qo‘yilgan.

Jahon davlatlari qonunchiligida badiiy ta’lim rasmiy va uzluksiz xarakterga ega ekani belgilangan bo‘lib, u

san’at va umumiy ta’limga xos tarkibiy qismlarni uyg‘unlashtirgan holda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, insonning butun hayoti davomida izchil va kompleks tarzda uzluksiz ta’lim olish zarurati ham alohida ta’kidlangan.

1980-yil 27-oktabrda YUNESKO tomonidan tasdiqlangan **“Ijodkorlarning maqomi to‘g‘risida”**gi xalqaro hujjatda badiiy ta’lim san’at amaliyotidan ajralmasligi alohida ta’kidlangan. Unda badiiy ta’lim faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, teatrlar, san’at ustaxonalari hamda teleradiokompaniyalar kabi madaniyat muassasalarida bevosita ijodiy muhitda, amaliy jarayon bilan uyg‘un holda olib borilishi lozimligi belgilab qo‘yilgan.

2006-yil YUNESKO tashabbusi bilan o‘tkazilgan badiiy ta’lim bo‘yicha Xalqaro konferensiya yakunlari asosida qabul qilingan “Badiiy ta’lim yo‘l xaritasi”da muzeylar, konsert zallari, madaniyat markazlari, badiiy san’at galereyalari va teatr kabi madaniyat tashkilotlari insonlarning madaniyat va san’at sohasiga oshno bo‘lishida asosiy manba hisoblanishi ta’kidlangan.

Binobarin, badiiy ta’lim jarayonida egallangan bilim va ko‘nikmalar madaniyat muassasalari faoliyatida amaliy ijodiy mahsulot sifatida namoyon bo‘lishi orqali badiiy ta’limning asosiy maqsad va vazifalari ro‘yobga chiqadi.

Ta’kidlash joizki, so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning tashabbusi bilan mamlakatimizda badiiy ta’limni rivojlantirish va takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Xususan, mazkur sohada oliy ta’lim muassasalarining soni sezilarli oshdi.

Jumladan, yangidan tashkil etilgan badiiy ta’lim tashkilotlari qatoriga Yu.Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti, B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti, O‘zbekiston davlat konservatoriyasining Nukus filiali, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi hamda uning Urganch filiali kiradi. Shuningdek, davlat rahbarining tegishli qaroriga muvofiq, Buxoro, Qarshi, Namangan va Urganch shaharlarida Xoreografiya akademiyasi huzurida ixtisoslashtirilgan boshlang‘ich raqs san’ati maktab-internatlari tashkil etildi.

Bundan tashqari, Nukus shahrida opera va baxshichilik san’atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internat hamda

Farg‘ona shahrida ixtisoslashtirilgan maqom maktab-internati faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bu muassasalar sohaning barcha bosqichlarida malakali kadrlar tayyorlashni ta’minlaydi va badiiy ta’limni milliy ta’lim tizimida mustaqil yo‘nalish sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Badiiy ta’lim insonning ma’naviy va ijodiy rivojlanishida muhim omil bo‘lib, uning huquqiy va institutsional asosini mustahkamlash zarur. Dunyoning yetakchi davlatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, badiiy ta’limning barqaror va samarali faoliyat yuritishi uchun uning qonunchilik, tashkiliy va metodologik jihatlari qonun darajasida belgilanishi lozim.

O‘zbekistondagi so‘nggi islohotlar sohaning barcha bosqichlarida izchil rivojlanishini ta’minlab, malakali kadrlar tayyorlash va badiiy ta’limning mustaqil maqomini belgilash imkonini yaratdi. Shu munosabat bilan, milliy qonunchilikka “badiiy ta’lim” tushunchasini alohida huquqiy kategoriya sifatida kiritish, sohaning huquqiy va institutsional asosini mustahkamlash hamda uni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish juda dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu esa nafaqat san’at sohasining rivojlanishi, balki barkamol, estetik va ijodiy salohiyatga ega avlod tarbiyasida ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.